QO'QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ASHUROVA NARGIZAXON VALIJON QIZI

TURLI TIZIMLI TILLARDA KOGEZIYANING KONTRASTIV TADQIQI (ELLIPSIS KESIMIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qo'qon – 2025

UO'K: 811.111'342.8+811.512.133'342.8

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

QO'QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ASHUROVA NARGIZAXON VALIJON QIZI

TURLI TIZIMLI TILLARDA KOGEZIYANING KONTRASTIV TADQIQI (ELLIPSIS KESIMIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qo'qon – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2951 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.kokanduni.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirildi.

|	
Ilmiy rahbar:	**Satimova Dilafruz Numonjonovna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**G'aniyeva Dildora Azizovna** filologiya fanlari doktori(DSc), professor
	Ja'farov Botir Sattarovich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi raqamli PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 Ilmiy kengashning 2025-yil " 30 " 12 soat 11:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28ᴬ-uy. Tel.: (993873) 545-55-55; faks: (99873) 545-44-44; E-xat: EXAT.UZ).

Dissertatsiya bilan Qo'qon universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (19 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28A-uy. Tel.: (993873) 545-55-55).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " 18 " 12 kuni tarqatildi. (2025-yil " 18 " 12 dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.B.Qobilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.G'.Najmiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.M.Oripova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida matnning bog'lanish vositalari, xususan, kogeziya va kogerentlik konsepsiyalari, shuningdek, ularning eng faol ifodalaridan biri bo'lgan "ellipsis" hodisasini turli tizimli tillar misolida qiyosi asosda tadqiq etish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylanmoqda. Matn yaxlitligi va izchilligini ta'minlovchi mazkur hodisalar Yevropa tilshunosligida an'anaviy grammatik yondashuv doirasidan chiqib, semantik, pragmatik hamda kontekstual jihatlar bilan uzviy bog'liq holda kompleks yondashuv asosida o'rganilmoqda. Ayniqsa, ingliz, o'zbek va rus tillarida ellipsis hodisasini faqat grammatik doirada emas, balki uning xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilish, tilning kommunikativ salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy asoslar va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida ellipsis hodisasi til birliklarining kontekstual va situativ jihatlaridan kelib chiqib, turli tizimli tillar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlash maqsadida keng tadqiq qilinmoqda. Ingliz va o'zbek tillarida grammatik ellipsisning turli diskurslarda (substantiv, predikativ, klouzal shakllarda) qo'llanilish xususiyatlari, shuningdek, lisoniy va nutqiy ellipsis hamda ularning muloqotdagi semantik va situativ,kontekstual jihatlarini hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni qiyosiy tadqiq qilish global kommunikatsiyani rivojlantirish va tabiiy qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar orqali zamonaviy til integratsiyasi va madaniyatlararo muloqotni yaxshilash uchun yangi nazariy-amaliy asoslarni yaratish zaruratini kasb etadi.

Mamlakatimizda turli tizimli tillarda kogeziyaning kontrastiv tadqiqi, xususan, ellipsis hodisasi yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, hozirga qadar ushbu hodisaning chet tillar bilan qiyosiy jihatdan monografik planda o'rganilishi yetarli emas. Shu ma'noda, ellipsisning xususiyatlarini xorijiy tillar bilan solishtirgan holda o'rganish, uning kontrastiv jihatlarini aniqlash tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biridir. Globallashuv sharoitida O'zbekistonning xalqaro hamkorliklari kengayayotgani xorijiy tillarni ularning madaniyati, mentaliteti va ijtimoiy munosabatlari kontekstida tadqiq etishni taqozo qiladi. Shu o'rinda, quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli: "Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir"[1]. Shuningdek, prezidentimiz farmonlarida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini ona tilimiz bilan qiyoslab o'rganish orqali til hodisalarini mukammalroq tadqiq qilish alohida maqsad qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son

---

[1] Mirziyoyev Sh. Ilm fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // www.standart.uz (murojaat sanasi: 23.04.2024)

"O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Diskurs va matn tilshunosligi, shuningdek, kogeziya va kogerentlik hodisalari jahon tilshunosligida keng qamrovli tadqiqotlarga ega bo'lishiga qaramay, mazkur soha hanuz ko'plab nazariy bahslarni yuzaga keltiruvchi dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Xususan, ingliz va rus tilshunosligida diskurs tahlili, matn bog'lanishi hamda kommunikatsiyaning semantik xususiyati bo'yicha yetakchi tadqiqotchilar tomonidan salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Yevropa va Amerika lingvistik maktablarining taniqli vakillari V. Dresler va R.A.deBogrand, T.VanDeyk, D. Sperber, M.A.K.Hallidey, R.Hasan, J.Katting, D.Tanen[2], rus tilshunosligida, I.R.Galperin, N.D.Arutyunova, T.G.Dobrosklonskaya, V.G.Borbotko, V.Z.Demyankov, I.S.Gerasimova, T.V.Milevskaya, E.N.Bobrikova[3], o'zbek tilshunosligida M.Hakimov, L.Raupova, M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazova, S.A.Boymirzayeva[4] singari olimlarning tadqiqotlari bu sohada muhim o'rin tutadi.

---

[2] De Beaugrande R., Dressler W.V. Introduction to Text Linguistics. – London, New York: Longman, – 1981; Van Dijk Teun A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. Cambridge University Press, 2008; Sperber D. Wilson D. Relevance. Communication and cognition. – UK: Blackwell, 1995; Straubhaar.J and LaRose.L Communications Media in the Information Society, 1997; Halliday M.A.K. and Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976; Cutting J. Pragmatics and Discourse: A resource book for students. 2 nd edition. – London: Routledge, 2002.; Tannen D. Talking Voices: Repetition, Dialogue, and Imagery in Conversational Discourse. – New York: Cambridge University Press, 2007. Second edition.

[3] Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981; Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: Наука, 1990; Добросклонская Т.Г. Медиадискурс: теория, методы, направление: Пара-тайп, Ridero, 2020; Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: Изд-во Чечено-Ингуш. гос. ун-та, 1981; Демьянков В. З. Текст и дискурс как термины и как слова обыденного языка. // IV Международная научная конференция «Язык, культура, общество». Москва, 2007; Герасимова И.С. Средства реализации когезии в региональных документах середины и конца XVIII века // Научный диалог. – 2017; Милевская Т.В. Связность как категория дискурса и текста (когнитивнофункциональный и коммуникативно-прагматический аспекты): дисс…док. филол. наук. – Ростов на Дону: Изд-во РГУ, 2003; Бобрикова Е.Н. Средства связности текста в литературе "потока сознания": на материале романа Джеймса Джойса "Улисс": автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2008;

[4] Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Фарғона, 1996; Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Боймирзаева С.А. Ўзбек тилида

Ellipsis, tejamkorlik tamoyili, to'liqsiz gaplar, til iqtisodiyoti prinsipi va qisqaruv hodisasi kabi lingvistik fenomenlar, ayniqsa ingliz, rus va o'zbek tilshunosligida, monografik tarzda turli aspektlardan chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, ingliz tilshunosligida E. Hetch, A.C.Henri, A.Olgriani, P. Herman, E. Koseryu, H.Daniyel[5] hamda rus tilshunosligida J.Vandries, Boduen de Kurtene, V.V.Bogoroditskiy, E.D.Polivanov, Y.D.Polivanova, A.Martine, A.A.Leontev, A.M.Shcherbak, T.A.Starodubova, M.M.Davidova, E.I.Morozova, M.E.Usmonova, D.R.Fatxulova[6] kabi olimlar, shuningdek, *o'zbek tilshunosligi* doirasida A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, N.Mahkamov, J.D.Eltazarov, Z.I.Rasulov, F.E.Ibragimova[7], U.A.Buriyeva tomonidan qimmatli ilmiy tadqiqotlar mavjuddir.

Shunga qaramay, bugungi kungacha ingliz va o'zbek tilshunosligida kogeziyaning asosiy shakllaridan biri bo'lgan ellipsis hodisasining struktural-sintaktik, semantik hamda kontekstual-situativ jihatlari qiyosiy-chog'ishtirma aspektda kompleks tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmaganligi, ayniqsa, ularning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi, mazkur mavzuning ilmiy-nazariy jihatdan chuqurroq tadqiq qilinishini talab etmoqda.

матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. (PhD) – Тошкент, 2010; Mamajonov M. Yu. Muloqotning psixolingvistik tadqiqi: Filol.fan. d-ri (DSc) ... diss.avtoref. – Farg'ona, 2025; Roziqova.G. So'z semantik taraqqiyotining o'zgarishlari xususida // Farg'ona davlat universiteti. – Farg'ona, 2023;

[5] Hatch E. Discourse and language education. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992; Henry A. C. The remark-able rise of '...': reading ellipsis marks in literary texts. – London: Routledge, 2019; Algryani A. Remarks on the Translation of Noun Phrase Ellipsis from English into Arabic // AWEJ for Translation and Literary Studies. Volume 4, № 1. February, 2020; Hermann P. Prinzipien der Sprachgeschichte. – Halle: Max Niemeyer, 1880; Coseriu E. Sincronía, diacronía e historia: El problema del cambio lingüístico. – Madrid: Gredos, 1958; Hardt Daniel. Verb Phrase Ellipsis: Form, Meaning, and Processing. University of Pennsylvania Dissertation, 1993;

[6] Вандриес Ж. Язык. Лингвистическое введение в историю. – М., 1937; Бодуэн де Куртенэ И.А. Очерки по истории лингвистики. – М., Академия наук, 1963; Богородицкий В.В. Основы фонетики русского языка. – М., Наука, 1965; Поливанов Е.Д. Где лежат причины языковой эволюции? // Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. – М., Наука, 1968; Мартине А. Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике. – М.,Иностранная литература, 1963; Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М., Наука, 1974; Щербак А.М. Система языка и речь. – Ленинград: Ленинградский университет, 1972; Стародубова Т. А. Эллиптические сложные предложения: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — М., 2009; Давыдова М.М. Прагматические характеристики эллипсисов (на материале современного английского языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2012. – Курск; Морозова Е.И. Структурно-функциональные типы и прагматические характеристики эллипсиса во французском языке в сопоставлении с английским (на материале газетно-журнальных публикаций): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2005; Усмонова М.Э. Эллиптические предложения в таджикском и английском языках. автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2012; Фатхулова Д.Р. Роль эллиптических конструкций в семантико-синтаксической организации делового диалога (на материале французского и английского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2008;

[7] Нурмонов А. Принцип экономии в фонетических изменениях узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1973; Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке. Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент,1977; Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент, Фан, 1988; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида қисқарув ҳодисаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1991; Элтазаров Ж. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув. – Самарқанд: СамДУ, 2004; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида қисқарув ҳодисаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1991; Расулов З. И. Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка (на материале английского языка). Дисс...канд. филол. наук. – Бухара, 2011; Расулов З. И. Нутқий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида). Филол. фан. д-ри. ... дисс.автореф. (DSc) – Тошкент, 2022; Ибрагимова Ф.Э. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Буриева У.А. Дискурсив таҳлилда воқеаланган тўлиқсиз гаплар ва уларнинг социопрагматик хусусиятлари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс.автореф. (PhD) – Тошкент, 2022.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" hamda "Nazariy tilshunoslik natijalaridan amaliy tilshunoslikka" konsepsiyasidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli tizimli tillarda kogeziya, xususan, ellipsis hodisasining struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik, funksional, leksik-stilistik jihatlari hamda translatologik muammolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kogeziya va ellipsis konsepsiyalarining ingliz va o'zbek tillaridagi nazariy-metodologik asoslarini chog'ishtirma tahlil qilish hamda kogeziya va kogerentlik tushunchalarining matn va diskursdagi o'zaro bog'liq va farqli jihatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida grammatik ellipsisning substantiv, predikativ va klouzal turlari doirasidagi struktural-sintaktik va funksional xususiyatlarini aniqlash hamda mazkur ellipsis shakllarini turli diskurslar (media, siyosiy, ilmiy, maishiy va badiiy) doirasida tasniflash;

qiyoslanayotgan tillarda lisoniy va nutqiy ellipsis hodisasining semantik, kontekstual (anaforik va kataforik), situativ (ekspilit va implisit), stilistik hamda pragmatik jihatlarini tahlil qilish, bu hodisalarni kommunikativ vaziyatga ko'ra yuzaga chiqish sabablarini aniqlash;

ellipsis hodisasining ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matn tarjimalarida saqlanishi yoki o'zgarishi jarayonlarini tadqiq qilish orqali tarjima muammolarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi turli diskurslar (media, siyosiy, ilmiy, maishiy va badiiy matnlar) doirasidagi ellipsislar hamda ularning tarjimalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi ellipsis hodisasining struktural-sintaktik xususiyatlari, funksional-pragmatik vazifalari, semantik va kontekstual-situativ jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tavsifiy, chog'ishtirma, qiyosiy, diskursiv, komponent, struktur, semantik, kontekstual, pragmatik, distributiv va transformatsion tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida kogeziya va kogerentlik tushunchalari matn va diskursning asosiy komponentlari sifatida o'zaro bog'liq va farqli jihatlari bilan tahlil qilinib, ularning grammatik *(referensiya, ellipsis, substitutsiya, konyunksiya)* va leksik turlari hamda ellipsis hodisasining lug'aviy-semantik *(grammatik, kontekstual, situativ, stilistik, pragmatik)* ko'rinishlari tizimli ravishda ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillarida grammatik ellipsisning substantiv, predikativ va klouzal turlari doirasida 15 ta subkategoriya ajratilib, ingliz tilida determinativ-leksik vositalar *(artikllar, ko'rsatish olmoshlari, nol substitutsiyalar)* va o'zbek tilida agglutinativ morfologik affikslarning *(egalik qo'shimchalari, shaxs-son affikslari va boshqalar)* grammatik va pragmatik xususiyatlari asoslangan;

har ikki tilda ellipsisning til tizimiga xos barqaror grammatik shakllari bilan bir qatorda, kommunikativ vaziyat va kontekstga tayanuvchi kontekstual *(anaforik va*

kataforik) hamda situativ *(ekspitsit va implitsit)* ellipsislarning tarjimada saqlanishi, ochiq ifoda qilinishi yoki to'ldirilishi zarurati bilan bog'liq translatologik muammolar aniqlangan;

inqliz va o'zbek badiiy matn tarjimalari asosida ellipsisning kontekstual va situativ shakllarining saqlanishi yoki o'zgarishi tahlil qilinib, inqliz tilida analitik sintaktik vositalar va o'zbek tilida agglutinativ morfologik-sintaktik vositalar asosida ularning tarjimada to'liq yoki qisman qayta tiklanishi ehtiyoji dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari inqliz va o'zbek tillaridagi ellipsis hodisasining struktural-sintaktik, semantik hamda kontekstual-situativ jihatlarini kompleks qiyosiy o'rganish asosida ishlab chiqilgan nazariy xulosalar, ilmiy tavsiyalar va tahliliy materiallarni oliy o'quv yurtlarida qiyosiy tilshunoslik, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, tarjimashunoslik fanlarini o'qitishda qo'llash imkoniyatini yaratadi;

inqliz va o'zbek tillaridagi grammatik ellipsisning substantiv, predikativ va klouzal shakllarining turli diskurslarda qo'llanishiga oid aniqlangan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida matn va nutqni kommunikativ-pragmatik jihatdan samarali tashkil qilish imkoniyatlari kengaytiriladi;

lisoniy va nutqiy ellipsis hodisasining semantik va situativ-kontekstual jihatlari hamda tarjima jarayonidagi muammolarini bartaraf etishga oid ishlab chiqilgan metodik ko'rsatmalar tarjima amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi nazariy-metodologik asoslarni yaratadi;

badiiy matnlarda ellipsis hodisasining tarjimada saqlanishi yoki o'zgarishini aniqlashga qaratilgan kontrastiv tadqiqot natijalari tarjima jarayonida pragmatik va lingvopoetik moslikni ta'minlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ilmiy-uslubiy tavsiyalar bilan boyitiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati inqliz va o'zbek tillarida kogeziya (ellipsis) hodisasining struktural-sintaktik, semantik hamda kontekstual-situativ xususiyatlarini kompleks qiyoslash orqali matn tilshunosligi, diskurs tahlili, pragmalingvistika, semantika, stilistika va tarjimashunoslik sohalaridagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos yaratish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan nazariy-metodologik asoslar va olingan natijalarni oliy ta'lim muassasalarida qiyosiy tilshunoslik, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, diskurs tahlili, tarjima nazariyasi va amaliyoti, inqliz tilining amaliy kurslarida o'quv jarayoniga tatbiq qilish imkoniyatini yaratish hamda matn va nutq hodisalarining tarjimashunoslik muammolariga oid yangi darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash yoki mavjudlarini yangilash uchun zamin yaratishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Inqliz va o'zbek tillarida kogeziyaning kontrastiv tadqiqidan olingan natijalar asosida:

inqliz va o'zbek tillarida grammatik ellipsisning substantiv, predikativ va klouzal turlari doirasida 15 ta subkategoriyaga ajratilib, inqliz tilida determinativ-

leksik vositalar (artikllar, tartib sonlar, koʻrsatish olmoshlari, nol substitutsiyalar) hamda oʻzbek tilida agglutinativ morfologik affikslarning (egalik qoʻshimchalar, shaxs-son affikslari va boshqalar) grammatik va pragmatik jihatdan dissertatsiya materiallaridan, undagi ilmiy-nazariy qarashlardan Jizzax davlat pedagogika universitetida 2020-2022-yillarda bajarilgan loyiha shifri: S-ECAHD-18-CA-0067, shartnoma raqami: PO№02002358 boʻlgan "English Access Microscholarship" mavzusidagi xorijiy amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Jizzax davlat pedagogika universitetining 2025-yil, 20-iyundagi 04-698-son maʼlumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar loyihaning ilmiy-metodik jihatdan boyitilishiga xizmat qilgan.

har ikki tilda ellipsisning til tizimiga xos barqaror grammatik shakllari bilan bir qatorda, kommunikativ vaziyat yoki kontekstga tayanadigan kontekstual (anaforik va kataforik) hamda situativ (ekspitsit va implitsit) ellipsislarning tarjimada saqlanishi, ochiq ifoda qilinishi, shuningdek, ingliz va oʻzbek badiiy matn tarjimalari asosida ellipsisning kontekstual va situativ shakllarining saqlanishi yoki oʻzgarishi tahlil qilinib, ingliz tilida analitik sintaktik vositalar va oʻzbek tilida agglyutinativ morfologik-sintaktik vositalar asosida ularning tarjimada toʻliq yoki qisman qayta tiklanishi borasidagi dissertatsiyasining ilmiy natijalari va materiallaridan Toshkent davlat Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan olib borilgan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-402104209 – "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – oʻzbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi innovatsion amaliy loyihada foydalanilgan (A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil, 20-iyundagi 01/4-2643-son maʼlumotnomasi). Natijada, ingliz va oʻzbek tillarida ellipsis hodisasini dasturiy jihatdan aniqlash, tarjima qilish, tizimlashtirish va avtomatik ishlov berish vositalarida qoʻllash uchun ilmiy-metodologik asos yaratilgan.

ingliz va oʻzbek tillarida kogeziya va kogerentlik tushunchalari matn va diskursning asosiy komponentlari sifatida oʻzaro bogʻliq hamda farqli jihatlari bilan tahlil qilinib, ularning grammatik (referensiya, ellipsis, substitutsiya, konyunksiya) va leksik turlari hamda ellipsis hodisasining lugʻaviy-semantik (grammatik, kontekstual, situativ, stilistik, pragmatik) koʻrinishlari tizimli ravishda ochib berilganligiga oid maʼlumotlar va yangiliklardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Oʻzbekiston-24" ijodiy birlashmasi "Oʻzbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Taʼlim va taraqqiyot", "Jahon adabiyoti" nomli radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 26-iyundagi 05-09-1026-son maʼlumotnomasi). Natijada mazkur telekoʻrsatuvlar ssenariysi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan boyitilib, koʻrsatuvlarning ijtimoiy-maʼrifiy ahamiyati sezilarli darajada ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari yuzasidan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda maʼruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 13 ta ilmiy ish va 1 ta oʻquv qoʻllanma, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi

Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, shu jumladan, 5ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tasniflangan, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Hozirgi zamon tilshunosligida kogeziya va ellipsis masalasi: nazariy-metodologik asoslar, amaliy tadqiqot yo'nalishlari»** nomli birinchi bobi matn bog'lanishining asosiy kategoriyalari bo'lgan kogeziya va kogerentlik tushunchalariga, ellipsis leksemasining ingliz tilidagi lug'aviy ma'nosi, shakllanish va rivojlanish tamoyillariga hamda o'zbek va rus tilshunosligida ellipsis konsepsiyasining nazariy tadqiqi va tahliliga bag'ishlangan.

"Diskursning mantiqiy izchilligi, ya'ni kogeziya, tinglovchilar yoki o'quvchilar tomonidan ularning dunyo haqidagi bilimlariga asoslanib, aqliy jihatdan shakllantirilishi lozim bo'lgan xususiyatdir"[8].

Aytish joizki, *diskurs* va *matn* tahlilida *"kogeziya"* va *"kogerentlik"* tushunchalari muloqotning ma'no va mazmun birikmasini shakllantiruvchi, uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Matnning ichki bog'liqligini ta'minlash jarayoni keng ko'lamli lisoniy vositalar tizimiga tayanadi. Ushbu jarayon *"kogeziya"* va *"kogerentlik"* kabi tushunchalarning qo'llanilishiga yo'l ochadi.

XXI asrga kelib mazkur terminlarni faollashgan bo'lib, rus an'anaviy tilshunosligida *"kogeziya"* atamasiga "связность" (текста), o'zbek tilshunosligida esa "matn bog'liqligi" deya murojaat etilgan.

I.R.Galperin[9] o'zining ishlarida matnning tarkibiy va funksional xususiyatlarini ochib beradi. U matnni tahlil qilishda sakkizta asosiy kategoriyani sanab o'tadi: *ma'lumot berish qobiliyati, bo'linuvchanlik, kogeziya* (ya'ni matn ichi aloqalar tizimi), *kontinium* (matnning vaqt va makon bo'yicha izchilligi), *qismlar avtosemantiyasi* (qismlarning o'z-o'zidan ma'no beruvchi xususiyatlari), *retrospeksiya va prospeksiya* (matnning o'tmish va kelajakka qarab yo'naltirilganligi), *modallik, yaxlitlik* va *tugallanganlik*[10]. Ushbu kategoriyalar matnning tuzilishini va uni qabul qilinishini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi. Demak, I.R.Galperin keltirgan sakkiz kategoriya ichida *kogeziya*

---

[8] Teun A. van Dijk. Text and Context: Explorations in the semantics and pragmatics of discourse. – London: Longman, 1977. – P.91.
[9] Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 138 с.
[10] Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B.5.

mavjud bo‘lib, bu matn bo‘ylab so‘z va iboralar o‘rtasidagi aloqalarni ifodalaydi. *Kogerentlik* matnning mantiqiy va tizimli aloqalarini, shuningdek, butun matnning semantik yaxlitligini ta’minlovchi kontseptual va kontekstual elementlarning uyg‘unligini ifodalaydi. Ushbu ikki tushuncha – *kogeziya* va *kogerentlik* – bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, matnning yaxlitligi va izchilligini ta’minlaydi. Bizningcha, I.R. Galperin tomonidan keltirilgan sakkizta kategoriya zamonaviy matn nazariyasini har tomonlama qamrab olish uchun yetarli emas, chunki ular ichida kogeziya formal, shakliy jihatlarni aks ettirsa-da, matnning semantik, mantiqiy yaxlitligini ifodalovchi kogerentlik tushunchasi alohida qayd etilmagan. Shu jihatdan kelib chiqib, matnning semantik, mantiqiy yaxlitligini ta’minlovchi **kogerentlik** tushunchasini mustaqil to‘qqizinchi kategoriya sifatida e’tirof etib, uni yuqoridagi asosiy deb topilgan sakkizta kategoriyalar safiga qo‘shishni zarur deb hisoblaymiz: *kogerentlik* -matnning semantik yaxlitligini ta’minlovchi kontseptual va kontekstual elementdir.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **"Yevropa tilshunosligida kogeziya tasnifi va tahlil metodlari"** deb nomlangan. Umumiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan kogeziyaning ikki asosiy turi mavjud: *grammatik kogeziya*, bu tur struktur mazmun asosida shakllanadi, va *leksik kogeziya,* bu esa leksik mazmun va fan bilimlariga tayanadi.

Mashhur tilshunoslar M.A.K. Halliday va R.Hasan[11] o‘zlarining "Cohesion in English" asarida matnlarda mantiqiy bog‘liqlikni yaratuvchi kogeziyaning besh asosiy vositalarini aniqlaydilar: 1) referensiya (reference) 2) ellipsis (ellipsis) 3) substitutsiya (substitution) 4) konyunksiya-bog‘lovchilar (conjunctions) 5) leksik kogeziya (lexical cohesion)[12].

1-rasm. Kogeziyaning yetakchi turlari iyerarxiyasi

Yuqorida qayd etilgan turlardan eng faoli bo‘lgan hodisa bu *ellipsis*dir. Ellipsisning so‘z, ibora, hattoki jumlalarni "tushirib qo‘yish" xususiyati "zero-nol" element[13] deb nomlanadi, u bog‘lovchi elementlarini o‘z tarkibiga olmasligi bilan ajralib turadi, bu bilan u bog‘lovchisiz ishlatilishiga ishora qiladi.

Birinchi bobning uchinchi fasli **"Ingliz tilida "ellipsis" leksemasining lug‘aviy ma’nosi, shakllanishi va rivojlanish tamoyillari"** deb nomlangan.

---

[11] Halliday M.A.K. and Ruqaiya Hasan. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 375 p.
[12] Halliday M.A.K. and Ruqaiya Hasan. Cohesion in English. . – London: Longman, 1976.– P. 75.
[13] Hatch E. Discourse and language education. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – P. 78.

"Ellipsis" so'zi yunoncha "ἔλλειψις" (èlleipsis) - *omission* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tashlab qo'yish" yoki "qisqartirish" ma'nolarini anglatadi[14]. Ellipsis ko'pincha yunon va lotin yozuvchilari tomonidan yo'l qo'yilgan sintaktik tuzilmalarning, masalan, bog'lovchisiz ega-kesimli gaplarning to'liq bo'lmagan ko'rinishlarini izohlash uchun ishlatilgan. Ellipsisning asosiy xususiyati shundaki, matndagi kontekstdan anglashilgan muhim qismlar (ma'lumotlar), so'zlar, so'z birikmalari, hattoki jumlalar so'zlovchi tomonidan ongli ravishda tushirilib qoldiriladi. Bunday holatlarda, mazkur qismlarni individ o'z kontekstiga ko'ra to'ldirishi kerak bo'ladi. Masalan, *Men kitob o'qidim, lekin u – yo'q* jumlasida *o'qidim* fe'lini ikkinchi qismda qoldirib ketish orqali gapning mazmuni noqis bo'lib qolmaydi va bu ellipsisning sodda namunasidir. "Ellipsis" leksemasi turli ingliz izohli lug'atlarida bir necha xil ma'nolarni ifodalaydi. (2-ilovaga qarang)

Yuqorida ko'rsatilgan lug'atlarda "ellipsis" leksemasi turlicha ta'riflangan bo'lsa-da, ularning umumiy ma'nosi bir-biriga juda yaqin. Asosiy farq ellipsisning qaysi jihatlari tahlil markaziga olinayotganida namoyon bo'ladi. Barcha lug'atlarda grammatik ellipsisning ustuvorligi aks etadi. Shuningdek, MWD[15] va LDOCE[16] ellipsisni stilistik nuqtayi nazardan ta'riflasa, CALD[17] esa ellipsisning matn va situativ jihatlarini ham tahlil qiladi. CCELD[18] va MED[19]ga kelsak, ellipsisni pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilib, tushirilgan so'zlar kontekstdan aniq ravishda tushunilishini ta'kidlaydi.

Birinchi bobning to'rtinchi fasli **"O'zbek va rus tilshunosligida "ellipsis" hodisasining nazariy tadqiqi va tahlili"** deb nomlangan.

O'zbek tilshunosligida ellipsis hodisasi birinchi marta monografik planda N.M.Maxmudov[20] tomonidan tadqiq qilinib uning stilistik, sintaktik va semantik xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan.Yana bir o'zbek tadqiqotchisi Z.I.Rasulov ingliz tilida gapda leksemalarning tushib qolishini "ellipsis" termini bilan ifodalagan[21]. Ushbu hodisa F.E. Ibragimovaning "Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis"[22] nomli ilmiy tadqiqot dissertatsiyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyillari hamda badiiy matn tadqiqida ellipsis va antiellipsisning lingvopoetik imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan[23]. Yana bir o'zbek tadqiqotchisi U.A.Buriyevaning "Diskursiv tahlilda voqealangan to'liqsiz gaplar va ularning sotsiopragmatik xususiyatlari (o'zbek va ingliz tillari misolida)"[24] nomli tadqiqoti

---

[14] Portner P., Maienborn C., Heusinger K. Semantics: sentence and information structure.– P. 307.

[15] Merriam Webster Dictionary. – USA. https://www.merriam-webster.com/dictionary/ellipsis

[16] Cambridge Advanced Learner's Dictionary. 3rd Edition. – Spain: Cambridge University Press. https://dictionary.cambridge.org/grammar/british-grammar/ellipsis

[17] Collins Cobuild Online English Language Dictionary. – William Collins Sons & Co Ltd. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/ellipsis

[18] Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. – London. United Kingdom: Macmillan Publishers Limited, New Edition, 2007. – P. 479.

[19] Longman Dictionary of Contemporary English. 6th edition. – Pearson Education, 2014. – P. 488. https://www.ldoceonline.com/Linguistics-topic/ellipsis

[20] Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке. Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 110 с.

[21] Расулов З. И. Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка (на материале английского языка). Дисс...канд. филол. наук. – Бухара, 2011. – С.10.

[22] Ибрагимова Ф.Э. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011 – 143 б.

[23] Ибрагимова Ф.Э. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011 – 143 б.

[24] Буриева У.А. Дискурсив таҳлилда воқеаланган тўлиқсиз гаплар ва уларнинг социопрагматик хусусиятлари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс.автореф. (PhD) – Тошкент, 2022. – 55 б.

to'liqsiz gaplarning diskursiv tahlili va sotsiopragmatik xususiyatlariga bag'ishlangan.

Til iqtisodi prinsipi til evolyutsiyasining umumiy va asosiy omillaridan biri ekanligi ko'plab tilshunoslar, jumladan P.Herman, E.Koseryu, I.A.Boduen de Kurtene, V.V.Bogoroditskiy, E.D.Polivanov, Y.D.Polivanova, A.Martine, A.A.Leontev, A.M.Shcherbak[25] tomonidan qayd etilgan.

Tilshunoslikda gapning elliptikligi yoki to'liqsizligini baholashda, asosan, ikki xil qarash mavjud: ya'ni 1) faqat bosh bo'laklardan birining tushishi to'liqsiz bo'laklarning tushishi ham gapning to'liqsizligiga olib keladi[26]. Rus tilshunosi A.M. Muxin[27] bu ikki talqinni tahlil qiladi va gap tarkibidagi har qanday bo'lakning tushib qolishi elliptik gapni shakllantira olishini modellashtirish usuli bilan ko'rsatib berishga harakat qiladi. Gap tarkibida u qadar asosiy bo'lmagan komponent tushib qolgan bo'lsa ham, gap to'liqsiz hisoblanadi, degan xulosaga keladi. Ammo bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi, chunki ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lmagan aniqlovchining gap tarkibidan tushib qolishi ellipsisga olib kelmaydi. Buning sababi aniqlovchining gapda obligator emas, fakultativ valentligidir.

Boshqa bir rus tadqiqotchisi T.A.Starodubova an'anaviy rus tilshunosligida "ellipsis" termini aniq bir talqinga ega emasligini qayd etadi[28]. Biroq, ko'p hollarda ellipsis qisqartirish, tushirib qoldirish yoki ifoda elementlarini implitatsiya qilish deb tushuniladi. Yevropa va o'zbek tilshunosligini qiyoslaganda, ellipsis hodisasi sintaktik darajada elementlarning tushirilishi orqali nutqning tejamkorligini ta'minlashi va semantik darajada ortiqchalikni bartaraf etish orqali nutqning ifodaliligini oshirishi aniq ko'rinadi.

Ishning **«Ingliz va o'zbek tillarida grammatik ellipsisning struktural-sintaktik va funksional jihatlari (turli diskurslar misolida)»** deb nomlangan ikkinchi bobi ingliz va o'zbek tillaridagi otli elliptik konstruksiyalar (substantiv elliptiklik), fe'lli elliptik konstruksiyalar (predikativ birliklarning ellipsis asosida qisqarishi) hamda klouzal ellipsis (gapga teng ega-kesimli strukturalarning tushirilishi) hodisalarining struktural-sintaktik xususiyatlari va funksional jihatlarini turli diskurslar asosida qiyosiy tadqiq qilishga bag'ishlanadi (1-ilovaga qarang).

M.A.K. Xallidey va Xasan tomonidan ilgari surilgan tasnifga binoan, ellipsis grammatik kogeziyani ta'minlovchi vosita sifatida uch asosiy turga ajratiladi: 1) *otli* (nominal) 2) *fe'lli* (verbal) 3) *klouzal* (gapga teng ega-kesimli struktura) ellipsis[29]. Yuqoridagi ellipsisning turlaridan kelib chiqib, tahlilimizni *otli elliptik konstruksiyalar,* ya'ni, substantiv elliptiklikdan boshladik.

[25] Hermann P. Prinzipien der Sprachgeschichte. – Halle: Max Niemeyer, 1880. – 376 p.; Coseriu E. Sincronía, diacronía e historia: El problema del cambio lingüístico. – Madrid: Gredos, 1958. – 224 p.; Бодуэн де Куртенэ И.А. Очерки по истории лингвистики. – Москва: Академия наук, 1963. – 206 с.; Богородицкий В.В. Основы фонетики русского языка. – Москва: Наука, 1965. – 601 с.; Поливанов Е.Д. Где лежат причины языковой эволюции? // Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. – М.: Наука, 1968. – С.84.; Мартине А. Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике. – М.: Иностранная литература, 1963. – Вып.3. – С.528 – 536.; Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – Москва: Наука, 1974. – 214 с.; Щербак А.М. Система языка и речь. – Ленинград: Ленинградский университет, 1972. – 432 с.

[26] Шахматов А.А. Очерки по истории русского синтаксиса. – Москва: Наука, 1964. – С.97.

[27] Мухин А.М. Структура предложений и их модели. – Ленинград.: Наука, 1968. – С. 171.

[28] Стародубова Т. А. Эллиптические сложные предложения: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Москва, 2009. — 19 с.

[29] Halliday M.A.K. and Ruqaiya Hasan. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – P. 287.

Substantivatsiya [lotincha *nomen substantivum* – ot so‘zi], boshqa so‘z turkumlariga mansub so‘zlarning otlar turkumiga o‘tishi orqali yangi so‘zlar hosil bo‘lishi jarayoni. Mazkur usul so‘z yasash vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, sifatlar va sifatdoshlar asosida yuzaga keladigan substantivatsiya hollari juda ko‘p uchraydi. Bunday substantivlar, lotincha adjectivum (sifat) so‘zidan kelib chiqqan atamaga ko‘ra, shaklan sifatga oid grammatik xususiyatlarni saqlab qolgan holda predmetlik mazmuni kasb etadi:

Ingliz tilida – *the poor / kambag‘allar* (poor people), *the sick / kasallar* (sick people); *the homeless / boshpanasizlar* (homeless people), *the unemployed / ishsizlar* (unemployed workers); *the final / o‘yin, imtihon* (final match/exam), *the past / o‘tmish* (past tense/days); *the daily / kundalik nashr (daily press).* O‘zbek tilida – *kasal* (kasal odam), *ishsiz* (ishsiz insonlar), *keksalar* (yoshi ulug‘ insonlar); *kelajak* (kelasi zamon), *o‘tmish* (o‘tgan zamon); *kunli* (kundalik to‘lov yoki nashr), *ertalabki* (ertalabki mashg‘ulot / poyezd), *final* (yakuniy uchrashuv). Boshqa so‘z turkumlaridan yasalgan substantivatlar o‘zgarmas so‘zlar sifatida qo‘llaniladi yoki asosiy so‘z turkumiga xos so‘z yasalish shaklini saqlab qoladi.

Anglashiladiki, yuqoridagi konstruksiya *elliptik substantivatsiya* deb ham atalib so‘z birikmasidagi asosiy ot tushirib qoldiriladi hamda sifat, sifatdosh, son kabilar mustaqil otga aylanishiga nisbatan qo‘llaniladi.

Ingliz tilida otli ellipsis hodisasi odatda ancha cheklangan grammatik vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Xususan, ingliz tilida otning tushirib qoldirilishi ko‘pincha *sonlar, tartib sonlar, artikl,* hamda *egalik yoki ko‘rsatish olmoshlari* kabi maxsus aniqlovchilar bilan chegaralanadi. Ishimizda turli nutq diskurslarida, jumladan, ommaviy axborot vositalari tili, siyosiy nutq, badiiy adabiyot, so‘zlashuv uslubi va ilmiy uslubda otli ellipsisning namoyon bo‘lishini tahlilga tortganmiz. Misol uchun:

Siyosiy diskurs. Siyosiy nutqlarda asosiy maqsad notiqlik kuchi orqali tinglovchilarga ta’sir o‘tkazish, shior va obrazli iboralar yordamida esda qolarli mazmun yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadda elliptik sintaksis ba’zan stilistik vosita sifatida qo‘llanadi. Xususan, ingliz siyosiy nutqida urg‘u berish hamda takrorning oldini olish uchun substantiv otli ellipsisdan foydalanilgan misollarni ko‘rish mumkin. Masalan, senator Edvard Kennedi AQSh tibbiy sug‘urtasi haqida gapirar ekan, quyidagilarni aytgan: *One of the greatest strengths of Medicare is that it is for everyone.* ***Rich and poor*** *alike contribute to the system.* ***Rich and poor*** *alike benefit from it[30]* (Morning Briefing, KFF Health News). Keltirilgan gapda *rich and poor alike* iborasi ikki marta qo‘llangan bo‘lib, *boylar ham, kambag‘allar ham* degan ma’noni anglatadi. Matnda *people* (odamlar) so‘zi ishlatilmagan, lekin *boy* va *kambag‘al* guruhlar nazarda tutilganini tinglovchi anglaydi. Mazkur ellipsis nutqda kuchli umumlashtiruvchi ta’sir hosil qiladi, jamiyatning barcha qatlamlari (boy-u kambag‘al) haqida bir nafasda eslatib, hamjihatlik g‘oyasini urg‘ulaydi. Shuningdek, parallel tuzilma (rich and poor alike ... rich and poor alike ...) nutqning ritmini oshiradi, lekin ortiqcha so‘zsiz ekspressiv maqsadga erishadi.

O‘zbek siyosiy nutqlarida ham shunga o‘xshash stilistik ellipsisga duch kelish mumkin. Siyosatchilar va davlat arboblari ko‘pincha aholi va uning qatlamlari

---

[30] KFF Health News. June 9th, 2009. https://kffhealthnews.org/morning-breakout/dr00018920/ (Date of access: 8.04.2025)

haqida gapirganda yosh-u qari, boy-u kambag'al kabi ifodalarni ishlatadilar. Masalan, O'zbekiston Prezidenti nutqlarida "Yurt taraqqiyoti uchun yosh-u qari birdek mehnat qilmoqda" kabi jumlalar uchrashi mumkin bo'lib, bunda yoshlar va qariyalar deyish o'rniga qisqa yosh-u qari iborasi qo'llanadi. Boy-u kambag'al iborasi ham "jamiyatning barcha tabaqalari" ma'nosida ishlatiladi, masalan: "Islohotlardan boy-u kambag'al bahramand bo'lishi kerak". Bu yerda boylar ham, kambag'allar ham degan ma'no, "tabaqalar" otini tilga olmasdan ifodalangan.

Dissertatsiyaning **"Fe'lli elliptik konstruksiyalar (predikativ birliklarning ellipsis asosida qisqarishi)** ga bag'ishlangan 2-bobining 2-faslida ingliz va o'zbek tillarida *fe'lli elliptik konstruksiyalar* (verbal ellipsis-VE)ga, ayniqsa, gap predikativi (kesimi)ning yoki fe'l qismning tushirilishi orqali hosil bo'ladigan strukturaviy hodisalarga e'tibor qaratamiz.

Nol to'ldiruvchi anafora (null complement anaphora) – ellipsis hodisasining nisbatan kam tadqiq qilingan shakli bo'lib, sintaktik hamda semantik jihatdan *fe'lli ellipsis* (VP ellipsis) bilan ko'plab umumiy jihatlarga ega, biroq farqli jihatlari ham mavjud. Uning asosiy farqli jihati shundaki, ushbu hodisaning amalga oshishi uchun ellipsisning ikkala segmentida ham aynan bir xil nol shaklidagi fe'llar qo'llanilishi majburiy bo'lib, ellipsis subyekt va fe'l orasida yuz beradi[31]

Predikatning tushirilishi ellipsisning markaziy ko'rinishlaridan bo'lib, bunda gapda kesim vazifasidagi fe'l, fe'lli birikma yoki unga bog'langan so'zlar tushirilib qoldiriladi hamda yordamchi yoki modal fe'l o'rinbosar sifatida qoladi. Aynan predikativ birliklarning ellipsis orqali qisqarishi, ya'ni gapda kesim (fe'l)ning tushirib qoldirilishi, eng ko'p uchraydigan elliptik konstruksiyalardan biridir. Ingliz tilida predikat ellipsisi bir nechta tiplari kuzatiladi: (1) takroriy fe'lning tushirilishi, (2) qisqa javoblarda fe'lli ellipsis, (3) bog'langan gaplardagi fe'lli ellipsis, (4) gepping hodisasi, (5) psevdogepping hodisasi, (6) ergash gaplardagi fe'lli qisqarish va (7) maqollarda fe'lli ellipsis.

Misol uchun: ingliz tilida *gepping* (bo'shliq, inglizcha *gapping*) termini ostida ellipsisning bog'langan qo'shma gapning ikkinchi qismida fe'l (yoki boshqa komponentlar) tushirib qoldirilishi nazarda tutiladi. Odatda *gepping* hodisasi *and, or, but* kabi bog'lovchilar orqali birikkan parallel tuzilmali gaplarda uchraydi va ikkinchi (yoki keyingi) bo'lakda egaga tegishli fe'l takrorlanmaydi, tushirib qoldiriladi. Bu usul matnda takrorlanishni bartaraf etib, diqqatni farqlanuvchi bo'laklarga qaratish imkonini beradi.

Policies helping the rich get richer and the poor poorer, report says. (Los Angeles Times, Business) // *Siyosat boylarga boylikni oshirishda, kambag'allarga esa qashshoqlikni kuchaytirishda yordam bermoqda, deb xabar beriladi.*

Mazkur gazeta sarlavhasida *"the poor poorer"* qismi gepping hodisasiga misol bo'lib ikkinchi bo'lakda *the poor* (kambag'allar) ga tegishli asosiy fe'l *"get"* tushirilgan. To'liq holda *"the poor get poorer"* bo'lar edi. *Gepping* natijasida sarlavha ixcham va urg'uli ko'rinishda chiqmoqda. Ingliz tilida bunday strukturada uslubiy jihatdan fe'lni takrorlamaslik joiz va keng tarqalgan bo'lib, bu stilistik

---

[31] Hardt Daniel. Verb Phrase Ellipsis: Form, Meaning, and Processing. University of Pennsylvania Dissertation, 1993. – P. 91.

jihatdan qiyoslash yoki qarama-qarshi qo'yish jarayonini kuchaytiradi. Keltirilgan misolda boylar va kambag'allar qarama-qarshi qo'yilgan, ellipsis esa diqqatni aynan ularning holatiga qaratadi, ya'ni *boylar boyib bormoqda, kambag'allar* esa *qashshoqlashmoqda* degan mazmun bilan fe'l ikki marta aytilmasa ham o'quvchiga tushunarli. O'zbek tilida bunday gapni to'liq shaklda ifodalaymiz, deya olmaymiz. Masalan, yuqoridagi mazmunni o'zbekchada *Boylar boyib bormoqda, kambag'allar esa qashshoqlashib* tarzida aytamiz. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida ikkinchi bo'lakda qo'shma fe'lning ikkinchi qismi tushirib qoldiriladi. Biroq, bu faqat og'zaki nutqda bo'lib, yozma nutqda esa bu unchalik odatiy emas. *Boylar boyib, kambag'allar esa qashshoqlashib bormoqda* deb fe'lni gapning oxiriga berish tabiiyroq.O'zbek tilida ingliz tilidagi gapping singari ellipsis, ya'ni bir gap doirasida fe'lning to'liq tushirib qoldirilishi keng qo'llanilmaydi yoki juda cheklangan holatlarda, asosan og'zaki nutqda uchraydi. Masalan, og'zaki nutqda *Birinchi guruh 5 kilo olma oldi, ikkinchi guruh esa 7 kilo* deyishimiz mumkin, bu yerda *oldi* fe'li takrorlanmay, nominal qism (7 kilo) bilan chegaralanmoqda. Lekin bunday qurilishlar asosan tushunarli vaziyatda va norasmiy uslubda sodda fe'llar tarkibida uchraydi. Qo'shma fe'llar ishtirokida esa fe'lning ikkinchi qismi ikkinchi gap oxirida berilib birinchi gapda ellipsisga uchraydi. Stilistik jihatdan esa, ingliz tilida gepping yangilik xabarlarida, sarlavhalarda ixchamlik uchun ishlatilsa, o'zbek tilida rasmiy matnlarda bunday qisqartirish deyarli uchramaydi, axborot to'liqligi uchun fe'lni qaytarish afzal ko'riladi.

2-bobning 3-fasli **Klouzal ellipsis (gapga teng ega-kesimli strukturalarning tushirilishi)** ga bag'ishlanadi.

Klouzal ellipsis – bu butun bir gap (yoki klouzlar - gapga teng ega-kesimli strukturalar)ning muhim qismlari kontekst asosida tushirib qoldiriladigan hodisadir. Bunday holatda gap grammatik jihatdan to'liq ko'rinsa ham, uning to'liq mazmuni faqat kontekst yoki oldingi savol-gaplarga asoslangan holda anglanadi. Fragmentar javoblar, buyruq va so'roqlarga qisqa javoblar, ba'zi bog'langan gaplarda egani yoki kesimni tushirib qoldirish – bularning barchasi klouzal ellipsis namunalari hisoblanadi. Klouzal ellipsis ko'pincha muloqotda sodir bo'ladi, chunki suhbatdoshlar o'zaro umumiy tushuncha va ma'lumot bazasiga ega bo'lganliklari tufayli, to'liq gap qurmasdan, qisqa javob yoki replikalar bilan kifoyalanaveradilar. Ingliz tilida klouzal ellipsis oid misolga e'tibor bering:

–*Did you eat anything?*
She nodded. – A little. (Rex Stout, Red Box. Chapter I, 17)
–*Biror narsa yedingizmi?*
U bosh irg'adi. – Ozroq.

Keltirilgan muloqot parchasida qizga savol beriladi: *Did you eat anything? // Biror narsa yedingizmi?* Qizning javobi: *A littlee (Ozroq)* bo'lib, mazkur javob grammatik jihatdan to'liq gap emas. To'liq shakli ozroq yedim degan mazmunda taxminan I ate a little (something) bo'ladi. Javobda egalik olmoshi "I" ham, kesim "ate" ham aytilmagan, faqat miqdor aniqlovchi qoldirilgan. Biroq savol beruvchi buning ma'nosini to'liq anglaydi: qiz ozroq ovqat yegan. Demak, bu klauzal ellipsis bo'lib butun bir predikativ konstruksiya (men yedim) qoldirib ketilgan. Bunday ellipsis og'zaki nutqda juda keng tarqalgan bo'lib savollarga qisqa javoblar deyarli

har doim ellipsistik shaklda bo'ladi. Masalan, *Where are you going? — To the store//Qayerga ketyapsan? – Do'konga* – javobda *I am going* qismi tushirilgan.

Ingliz tilida fe'lli elliptik konstruksiyalar, asosan, yordamchi yoki modal fe'llar yordamida amalga oshib, takror fe'llar, qisqa javoblar, inversiya, shuningdek, gepping va psevdogapping hodisalari orqali ifodalanadi. Ushbu uslub ingliz tili uchun me'yoriy hisoblanib, ko'pincha kontekst orqali to'ldiriladi. O'zbek tilida esa ellipsis, odatda, fe'l shakllari yoki bog'lovchi vositalar (ayniqsa shart, shart-hol ergash gaplaridagi *-sa, -ganda* ham kabi qo'shimchalar) bilan amalga oshiriladi, ammo yordamchi fe'lning to'g'ridan-to'g'ri saqlanib qolishi kamdan-kam uchraydi. Shuningdek, o'zbek tilidagi fe'lli ellipsis ko'proq og'zaki nutqda, soddaroq tuzilishga ega bo'lgan va kontekstga qat'iy bog'langan gaplarda yuzaga keladi.

Sluicing (wh-ellipsis) hodisasi. *Slusing* (sluicing) – wh-so'roq olmoshlari ishtirokidagi ellipsisning maxsus turi bo'lib, unda so'roq gapning faqat *wh-qismi* saqlanadi, qolgan komponentlari tushiriladi. Bu atama ilk bor J. Ross (1969) tomonidan *Guess who? // Kiml ekanligini top?* tarzida kiritilgan bo'lib[32], ingliz tilida atroflicha o'rganilgan hodisadir. Ingliz tilida *slusing* umumiy sintaksis qoidalaridan kelib chiqib, *wh-* so'zning odatiy pozitsiyasidan tashqariga (birinchi pozitsiyaga) ko'tarilishi va oradagi butun gapning o'chirilishi orqali hosil bo'ladi. Masalan, ingliz tilida: *Someone has arrived, but I don't know who*. Ushbu birikmada ikkinchi jumla *I don't know who (has arrived)* degan ma'noni anglatadi, *has arrived* qismi tushib qolgan va faqat *who* so'roq olmoshi qolgan. O'zbek tilida buni ifodalash uchun odatda so'zma-so'z *sluicing* emas, balki ergash gap shaklidan foydalaniladi: *Kimdir keldi, lekin kim kelganini bilmayman*. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida *kim* so'rog'i ortidan *-ganini* shakli bilan ergash gap qurilgan (*kim kelganini*), bu to'liq gap bo'lib, inglizchadagi *who* yolg'iz kelgan variantga mos keladi.

Ishning **«Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy ellipsisning semantik va kontekstual-situativ jihatlari hamda translatologik muammolari»** deb nomlangan uchinchi bobi ingliz va o'zbek tillaridagi lisoniy va nutqiy ellipsis turlarini aniqlash, semantik ellipsisning kontrastiv tadqiqini amalga oshirish, shuningdek, badiiy matnlarda ellipsisning kontekstual va situativ ifodalanishini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Shu bilan birga, mazkur ellipsis hodisasining tarjima jarayonidagi muammolari hamda uning izomorfik va allomorfik jihatlari ko'rib chiqiladi, bu asosda yuzaga keladigan translatologik muammolarga ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot uchinchi bobining birinchi fasli "Ingliz va o'zbek tillarida lisoniy va nutqiy ellipsisning turlari"ga bag'ishlangan. Tilshunoslikda ellipsis hodisasini dastlab *lisoniy va nutqiy* ellipsisga ajratish keng tarqalgan. Bu ikki tip lisoniy hodisa sifatida turlicha semantik va pragmatik xususiyatlarga ega. Xususan, *lisoniy ellipsis* bevosita nutq jarayoni yoki kontekstga bog'liq emas, balki u til tizimining lug'aviy qatlamida barqarorlashib, mustaqil birlik sifatida amal qiladi. Bunday lisoniy elliptik shakllarda lug'aviy birlikning ayrim tarkibiy qismi tushirib qoldiriladi va uning mazmuni qolgan qism orqali tiklanadi. Jumladan, *ko'zi ojiz* degan birikmada aslida

---

[32] Ross J. R. Guess Who? // Proceedings of the Fifth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1969. – P. 252–286.

inson yoki *shaxs* so'zi aytilmagan, biroq elliptik konstruksiya orqali ma'no boshqa mavjud so'z hisobiga uzatiladi. Mazkur lisoniy ellipsis til sathida shakllanganligi bois u har qanday kommunikativ vaziyatda yoki nutq shaklida ham aniq va tushunarli bo'lib qolaveradi.

Nutqiy ellipsis, yuqorida qayd etilganidek, asosan dialog va monologlarda, gapirish jarayonida yuzaga keladi. Bunda gapning ayrim qismlari kontekst orqali anglashilsa-da, bevosita aytilmaydi. Nutqiy ellipsis og'zaki va yozma dialoglarda namoyon bo'lib, qahramonning maqsadi – ortiqcha takror va kutilgan informatsiyani tushirib qoldirish orqali nutqni sodda va ta'sirchan qilishdan iborat. Ingliz va o'zbek adabiy matnlarida nutqiy ellipsis o'xshash pragmatik vazifani bajarsa-da, u har ikki tilning xususiyatlaridan kelib chiqib, shakllanishi jihatidan turlicha ko'rinish oladi. Nutqiy ellipsislar badiiy asarlar matnida muayyan maqsad bilan qo'llanadi va aynan lingvopoetik (badiiy-uslubiy) qiymatga ega bo'ladi. Ya'ni, adiblar nutqiy ellipsisdan foydalanib, matnga obrazlilik, ekspressivlik va dinamizm bag'ishlaydi. Nutqiy ellipsislar turli omillarga ko'ra tasniflanadi.

2-rasm. Nutqiy ellipsisning asosiy turlari

Ko'pincha so'zlashuvda mazmun konteksdan ayon bo'lsa, gapning ayrim bo'laklari tushiriladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" (1925) romanida bosh qahramon Otabekka savol berilganida, u juda qisqa javob bilan kifoyalanadi:

– *Bu kishi kimingiz bo'ladir, bek aka? Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:*

– *Qulimiz.* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar, 2)

Dialogdagi *Qulimiz* degan javob semantik ellipsis bo'lib, to'liq shaklda Otabekning javobi *Bu kishi bizning qulimiz* bo'lishi kerak edi. Otabek ortiqcha izoh bermasdan, faqat bitta so'z bilan (ko'plik shaklidagi egalik olmoshi bilan) kifoyalanadi. Ushbu nutqiy ellipsis Otabekning ruhiy holati va ijtimoiy vaziyatini ifodalaydi. Kontekstdan ma'lumki, u bu javobni Hasanaliga eshitmaydigan joyda beradi, demak, u mazkur haqiqatni oshkor etishdan tortinmoqda. *Qulimiz* deb qisqa aytishi orqali Otabekning semantik niyati iloji boricha kamroq so'z bilan, noxush haqiqatni tasdiqlashdir. Javobning lingvopoetik funksiyasi qahramon nutqining lakonik tarzda, bosiqlik va uyat aralash ohangda eshitilishida namoyon bo'ladi. Haqiqatan ham, bir so'zlik javob keskin va kesik tovushda yangrab, Otabekning vaziyatdan noqulayligini va ayni paytda qat'iy javob berishga majburligini ko'rsatadi. Nutqiy konteksda bunday ellipsisli javob realizmni ta'minlaydi va bu

tabiiydir. Dialog hayotiy ko'rinish kasb etadi va personaj nutqining ijtimoiy-ma'naviy mazmuni (qul egasining ichki kechinmasi) subtekst tarzida o'quvchiga yetkaziladi.

Dissertatsiyaning 3-bob 2-fasli "**Ingliz va o'zbek tillarida semantik ellipsisning kontrastiv tadqiqi**"ga bag'ishlanadi.

Semantik ellipsis – bu gapda ma'lum bir birlik (so'z yoki ibora) tushirib qoldirilgan holda, uning mazmuni kontekst orqali to'liq anglashiladigan hodisadir. Boshqacha aytganda, biror gap bo'lagi bevosita aytilmasa-da, uning ma'nosi nutqning avvalgi yoki keyingi qismlaridan, vaziyatdan kelib chiqib tiklanadi. Lingvistik adabiyotlarda ellipsis lingvistik iqtisod tamoyiliga asoslanishi ta'kidlanadi – til imkon qadar qisqa, ixcham ifoda orqali fikrni yetkazishga intiladi[33]. Shu bois ongli tushirishlardan ortiqcha so'z va takrorlar – *tavtologiyaning* oldini olish maqsadi kuzatiladi.

Badiiy matnda semantik ellipsisni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar – *ekspressivlik, mantiqiy urg'u* va *tavtologiya*dan qochishdir.

Yuqorida keltirilgan omillarning tahliliga ko'ra, quyida Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" (Andisha va g'urur) romani va uning o'zbek tilidagi tarjimasidan olingan dialog parchasida shu hodisaning namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz. Har bir holatda ingliz tilidagi matnda ortiqcha so'z yoki bo'lak aytilmay, tushirib qoldirilgan birliklar kontekst orqali o'quvchi tomonidan "aktualizatsiya" qilinadi, ya'ni tushuniladi. Tarjimada esa ellipsis holatlari ba'zan to'liq saqlangan, ba'zida esa semantik aniqlik va uslubiy tabiiylikni ta'minlash uchun qo'shimchalar bilan to'ldirilgan.

– *Do you play and sing, Miss Bennet?*

– *A little.*

– *Oh! then – some time or other we shall be happy to hear you. Our instrument is a capital one, probably superior to – You shall try it some day. Do your sisters play and sing?*

– *One of them does.* (Jane Austen. Pride and Prejudice. Chapter XXIX, 231)

– *Miss Bennet, siz biror nima chalib ashula ayta olasizmi?*

– *Biroz qo'limdan keladi.*

– *Unda biror kun sizni eshitamiz. Menda, bilasizmi... zo'r musiqa asbobi bor. O'zingiz tan berasiz. Opa-singillaringiz ham chalib ashula aytishadimi?*

– *Ha, bittasi.* (M.Ismoilova tarjimasi. Andisha va g'urur, 178)

Semantik ellipsisning badiiy diskursda qo'llanilishi va uning asliyat va tarjimada saqlanish holatlari Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" romani va uning M.Ismoilova tarjimasi asosida jadval orqali yoritib berildi (3-ilovaga qarang).

Ishning 3-bobi 3-fasli "**Chog'ishtirilayotgan tillarda ellipsisning badiiy matnlarda kontekstual va situativ ifodalanishi va tarjima muammolari (izomorfik-allomorfik jihatlar)**" deb ataladi.

Matn ichida kontekstga tayanuvchi ellipsis bu oldingi yoki keyingi gaplarda mavjud bo'lgan ma'lumotga ishora qilgan holda, uni takroran ifoda etmaslik orqali yuzaga keladigan til hodisasidir. Bunday ***kontekstual (endoforik) ellipsis*** matnda

---

[33] Asadov T.H. Matn tilshunosligi. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2023. – B.97.

kogeziyani ta'minlaydi, chunki tushirilgan qism avvalgi matn bo'lagi hisobiga tiklanadi. Misol uchun, ingliz tilida: *Tom painted the fence, and Sid __ the gate* (The Adventures of Tom Sawyer. Mark Twain, 16) gapida *Sid painted the gate* qismini qoldirib ketish *gepping* (bo'shliq – 2.2. - bo'lim) usulida amalga oshirilgan bo'lib, bu tushib qolgan fe'l qismini oldingi gapdan (*painted*) topish mumkin. Ushbu tarzda kontekstual ellipsis matn bo'ylab izchil ma'no ipini hosil qiladi.

Situativ ellipsis – bu nutqiy vaziyat (muloqot jarayoni, ekstralingvistik kontekst) orqali tushuniladigan ellipsis bo'lib, bunda tushirilgan so'z yoki iborani tiklash uchun atrof-muhit, suhbat mavzusi, ishoralar yoki vaziyatning o'zi yordam beradi. Bu hodisa ba'zan ***ekszofora ellipsisi*** ham deyiladi, chunki kerakli ma'no matn tashqarisidagi vaziyatdan (exophoric context) olinadi. Situativ ellipsis asosan og'zaki nutqda uchrab suhbat chog'ida insonlar qo'shma gaplarni, to'liq jumlalarni ishlatmasdan ham bir-birini tushunaveradi.

Situativ ellipsis (ekzofora) matn doirasida ko'rsatilmagan, balki muloqot jarayonidagi vaziyatdan kelib chiqib tushuniladigan unsurlarning tushirilishidir[34]. Bunday ellipsis asosan og'zaki nutqda, norasmiy muloqotda uchrab, so'zlashuvchilarning o'zaro tushunishiga tayanadi. Masalan, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida quyidagi muloqot misol bo'la oladi:

– *Shapag', – dedim unga, – katta to'ping qayerda?*

– *Qo'g'irchoqlarimning oldida, nima qildi?*

– *U yerda yo'q-ku!*

– ***Ha... o'lgur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber.*** *Men iljayib turaverdim...*(Shum bola. G'afur G'ulom, 11)

– *Shapag, - I said to her, - where is your big ball?*

– *It is among my toys and dolls. What happened?*

– *It is not here!*

– ***Yes, maybe you have taken it, give it back to me, idiot!*** (I.M.To'xtasinov va U.R.Yo'ldoshev tarjimasi, 11)

Yuqoridagi suhbatda uka singlisining o'yinchoq to'pini yashirincha olmoqchi bo'ladi. Aka savol bilan singlisini chalg'itgach, singlisi Shapag' shubhalanib *Ha, o'lgur...* deb baqiradi. Aslida kontekstual ellipsis sodir bo'lgan matn quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak edi: *Ha, o'lgur, sen (katta to'pni) olgandirsan, hozir to'pni berasan, (to'pni) ber!* So'zlovchining maqsadi akasini ayblab, zudlik bilan o'yinchoqni undirib olishdir. Ushbu niyat jahl va shoshilinch ohangda, qisqa gaplar orqali ifodalangan. Mazkur gap tarkibida to'ldiruvchi ellipsisi kuzatiladi, ya'ni *hozir berasan* deganda nima berilishi tushirilgan. Mantiqan so'z *(to'pni) berasan* bo'lishi kerak, lekin kontekst aniq bo'lgani uchun to'g'ridan-to'g'ri *berasan, ber* deya buyruq ohangi ishlatilgan. Obyekt *to'p* savolda ishlatilgan muloqotda avval tilga olingan, shuning uchun uni takror aytish shart emas. Ikki marta *berasan, ber* deb fe'lning takrorlanishi talabning qat'iyligini kuchaytiradi. Uhbu nutqiy vaziyatda ellipsis obyektning ma'lumligi va hissiy keskinlik tufayli vujudga kelgan. Uning ingliz tiliga tarjimasiga yuzlansak, *Yes, maybe you have taken it, give it back to me, idiot!* – deb, tushirilgan ma'no to'liq aks ettirilgan (*"it"* so'zi orqali *to'p* nazarda

---

34 Langeek.co. https://langeek.co/en/grammar/course/260/ellipsis. (Date of access: 15.02.2025)

tutiladi). Tarjimada kontektual ellipsis saqlanmagan, obyektni anglatuvchi *"it"* va *"to me"* qo'shimchalari kiritilgan. Aytishimiz mumkinki, mazkur jumla ingliz tilida to'liq qayta tiklangan: *"give it back to me"* , ya'ni *uni qaytarib ber* tarzida aniq aytilgan. Bu orqali mazmun tushunarli bo'lib, asliyatdagi tushirilgan to'ldiruvchi tiklandi, natijada o'quvchida nima haqida gap ketayotgani tushunarli bo'ladi. Stilistik jihatdan, tarjimada singlining g'azabli ohangi biroz yumshagan, asliyatdagi *berasan, ber* takroriy fe'l shakli *"give it back to me"* deb bir marta aytiladi. Zero, ellipsis tufayli originalda paydo bo'lgan keskin talab intonatsiyasi tarjimada bir oz ravonroq jumlaga aylangan. Biroq tarjimon singlining hissiy holatini boshqa unsurlar bilan yetkazgan, masalan, *o'lgur* qarg'ishining *"idiot"* deya berilishi haqorat ohangini saqlaydi. *"Idiot"* so'zining konnotatsiyasi zamonaviy ingliz tilida *ahmoq* degan ma'noda bo'lib, *o'lgur*ning dag'allik darajasiga yaqin hisoblanadi. Umuman olganda, tarjimada jumlaning ma'noviy aniqligi saqlangan, ellipsisning ta'sirida hissiy va stilistik effekt qisman pasaygan bo'lsa-da (buyruqning keskinligi biroz yumshagan), singlining jahl bilan akasini koyishi yetarli darajada aks etgan.

Tarjima matnda doim ham ellipsis saqlab qolinadi, deya olmaymiz, sababi, o'zbek tilidagi ellipsisning ingliz tilida saqlanmasligi morfologik klassifikatsiya va til tizimlarining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqadi. O'zbek tili agglyutinativ til bo'lib, grammatik ma'nolar asosan so'zlarga qo'shimchalar orqali qo'shiladi. Ingliz tili esa flektiv-analitik til sifatida grammatik ma'nolarni morfemalar va qat'iy sintaktik tartib orqali ifodalaydi.

3.4-jadvaldan ko'rinadiki (5-ilovaga qarang), G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llanilgan kontekstual va situativ ellipsislarning ingliz tilidagi tarjimasida saqlanish darajalari bir xil emas. Kontekstual ellipsislar amal qilgan o'rinlar ingliz tilida ko'pincha grammatik struktura talablari asosida to'liq shaklda tiklanadi yoki grammatik jihatdan qayta tuziladi. Situativ ellipsislar esa tarjimada, asosan, vaziyatni izohlovchi vositalar yoki qisqa javoblar orqali qisman saqlanadi. Bunday farqlar har ikki tilning grammatik va stilistik tizimlari bilan bog'liq bo'lib, tarjimonni ayrim hollarda ellipsisni tiklash yoki boshqa lingvistik vositalar yordamida mazmunni to'ldirishga majbur etadi

XULOSA

1. Diskurs tahlili inson kommunikatsiyasining murakkab va ko'p qirrali jarayonini aks ettiruvchi ilmiy yo'nalish sifatida ajralib turadi. U tilshunoslik, pragmatika, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va falsafa kabi ko'plab sohalar bilan chambarchas bog'liqdir. Diskurs matndan kengroq tushuncha bo'lib, kommunikativ va kognitiv jihatdan jonli muloqotni ifodalash imkoniyatiga ega.

2. Matn yaxlitligi va izchilligini ta'minlovchi kogeziya va kogerentlik tushunchalari matn lingvistikasining asosiy kategoriyalari sanaladi. Kogeziya matnning tashqi, formal bog'lanishini ta'minlovchi grammatik va leksik vositalar orqali amalga oshirilsa, kogerentlik matnning ichki semantik va mantiqiy bog'liqligini ifoda etuvchi kontseptual va kontekstual elementlar asosida tashkil etiladi.

3. Kogeziyaning grammatik va leksik turlari mavjud bo'lib, ular *referensiya, ellipsis, substitutsiya, konyunksiya* va *leksik bog'lanish* kabi *5 ta* asosiy vositalar

orqali amalga oshiriladi. Bu vositalar matn qismlarini bir-biriga bog‘lab, uning yaxlitligi va kommunikativ samaradorligini oshiradi.

4. Ellipsis hodisasi matn tejamkorligi va ekspressivligini oshirish uchun sintaktik va semantik jihatdan ortiqcha elementlarning tushirilishi orqali ro‘y beradi. Turli ingliz leksikografik manbalarida "ellipsis" tushunchasining qiyosiy tahlili bu kategoriyaning *besh* turga ajratilishini aniqlaydi: 1) grammatik ellipsis 2) matn ellipsisi 3) vaziyat ellipsisi 4) stilistik ellipsis 5) pragmatik ellipsis.

5. Ingliz va o‘zbek tillarida ellipsis grammatik bog‘liqlikni ta'minlovchi uch asosiy shaklda namoyon bo‘ladi: otli, fe'lli va klouzal ellipsis. Ingliz tilida *otli ellipsis* asosan determinatorlar (artikllar, tartib va sanoq sonlar, egalik va ko‘rsatish olmoshlari) orqali yuzaga chiqsa, o‘zbek tilida bu hodisa ko‘plik va egalik affikslari, substantivlashuv hamda umumlashgan olmoshlar yordamida amalga oshiriladi. *Fe'lli ellipsis* ingliz tilida *yordamchi* va *modal fe'llar, inversiya, gepping* va *psevdogepping* kabi maxsus konstruksiyalar orqali amalga oshadi. Bu hol ingliz tilida sintaktik tuzilmalar bilan bog‘lanib, kontekst orqali to‘ldiriladi. O‘zbek tilida esa fe'lli ellipsis ko‘proq og‘zaki nutqda, fe'l shakllari va shart ergash gap qo‘shimchalari (-sa, -ganda) orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilida parallel konstruksiyalar stilistik ekspressivlik uchun qo‘llanilsa, o‘zbek tilida fe'l takrori yoki qo‘shma fe'llarning komponentlarini almashtirish orqali ifodalanadi.

6. *Klouzal ellipsis* ingliz va o‘zbek tillarida ham axborotning asosiy mazmuniy yadrosini saqlagan holda nutqni ixchamlashtirish va tilning iqtisodiy ifodalanish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Ingliz tilida javob ellipsisi hamda so‘roq olmoshli ellipsis (sluicing) keng tarqalgan bo‘lib, ular anaforik mexanizm asosida gap tuzilmasining qisqarishini ta'minlaydi. O‘zbek tilida esa klouzal ellipsis ko‘pincha fe'lning shaxs-son qo‘shimchalari orqali yoki pragmatik vaziyatdan kelib chiqib yuzaga chiqadi. Bundan tashqari, qiyoslanayotgan har ikki tilda nol to‘ldiruvchi anafora (null complement anaphora) shaklidagi elliptik konstruksiyalar mavjud bo‘lib, ingliz tilida bu holat infinitiv va gerundial shakllarning erkin qo‘llanishi sababli grammatik jihatdan tabiiy hodisa sifatida qaraladi. O‘zbek tilida esa bunday konstruksiyalar asosan kontekstual va pragmatik asosga tayangan holda yuzaga chiqadi hamda nutqning ekspressivligi va semantik kontekstualizatsiya tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

7. Tadqiqot natijasida har ikki tilda ellipsis konstruksiyasining 3 asosiy turi va ular tarkibidagi 15 ta subkategoriya aniqlangan: **1. Otli elliptik konstruksiyalar:** a) aniqlovchi elliptik konstruksiya; b) sonli elliptik konstruksiya; d) sifatli elliptik konstruksiya; e) olmoshli elliptik konstruksiya. **2. Fe'lli elliptik konstruksiyalar:** a) takroriy fe'lning tushirilishi; b) qisqa javoblarda fe'lli ellipsis; d) bog‘langan sodda gaplardagi fe'lli ellipsis; e) gepping hodisasi; f) psevdogepping hodisasi; g) ergash gaplardagi fe'lli qisqarish; h) maqollarda fe'lli ellipsis. **3. Klouzal elliptik konstruksiyalar:** a) javob fragmentidagi to‘liq klouzal ellipsis; b) *slusing* (wh-ellipsis) hodisasi; d) nol to‘ldiruvchi anafora; d) yordamchi so‘zlarning tushirilishi.

8. Ellipsis hodisasi ingliz va o‘zbek tillarida ikki asosiy shaklda – *lisoniy va nutqiy* ellipsis sifatida namoyon bo‘ladi. *Lisoniy ellipsis* til tizimidagi komponentlarning doimiy tushirilishi orqali yuzaga kelib, nutqiy vaziyat yoki kontekstga bog‘liq emas. *Nutqiy ellipsis* esa bevosita muloqot jarayonida

kontekstual va situativ jihatlarga asoslanib, ortiqcha takrorlardan qochish va fikrni qisqa, aniq ifodalashga xizmat qiladi. Nutqiy ellipsis semantik, kontekstual hamda situativ shakllarda namoyon bo'ladi. *Semantik ellipsis* matndagi mazmuniy qismlarning kontekst orqali qayta tiklanishi imkonini berib, mantiqiy urg'u va emotsional ekspressivlikni oshiradi. Ingliz tilida ellipsis ko'proq ega, kesim va yordamchi fe'llarning tushirilishi orqali ifodalansa, o'zbek tilida odatda ega yoki predikatning qisman tushirilishi kuzatiladi.

9. *Kontekstual ellipsis* ingliz va o'zbek tillarida matn ichidagi bog'lanishni ta'minlab, oldingi yoki keyingi gaplarga tayanib anaforik va kataforik shakllarda yuzaga chiqadi. Tadqiqot davomida (Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" romani asosida va uning M.Ismoilova tomonidan qilingan tarjimasi asosida) aniqlanishicha, ingliz tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimada semantik ellipsis to'liq yoki qisman saqlanishi bilan bir qatorda, ayrim hollarda tarjimonning aniqlik yoki uslubiy tabiiylik maqsadida ellipsisni ochiqroq ifodalar hisobiga kamayishi (antiellipsis) kuzatiladi. Situativ ellipsis esa suhbat jarayonida ekstralingvistik vaziyatga asoslanib, nutqning qisqalik va tezkorligini ta'minlaydi. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi va uning inglizcha tarjimasi misolida situativ ellipsislarning ingliz tilida ba'zan tiklanishi yoki qisman saqlanishi kuzatiladi.

10. Tarjima jarayonida ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi grammatik farqlar ellipsis hodisasini turlicha ifodalash yoki tiklash zaruratini yuzaga keltiradi. Ingliz tilining analitik-flektiv xususiyati yordamchi so'z va sintaktik konstruksiyalarni talab qilsa, o'zbek tilining agglutinativ-morfologik xususiyatlari ellipsisni affiksal vositalar bilan ifodalash imkoniyatini beradi. Demak, tarjimonlar original matndagi stilistik va pragmatik jihatlarni hisobga olib, ellipsisni to'liq tiklash yoki qisman saqlash orqali nutqning ta'sirchanligini va tabiiyligini ta'minlaydi.

SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 ON AWARD OF SCIENTIFIC DEGREE DOCTORS OF SCIENCE AT KOKAND UNIVERSITY

ANDIJAN STATE UNIVERSITY

ASHUROVA NARGIZAXON VALIJON QIZI

CONTRASTIVE STUDY OF COHESION IN NON-RELATIVE LANGUAGES (IN THE CONTEXT OF ELLIPSIS)

10.00.06 – Comparative Literary, contrastive linguistics and tranlation studies

ABSTRACT
of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

Kokand – 2025

The theme of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences was registered at the Supreme Attestation Commission of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under B2022.4.PhD/Fil2951.

Doctoral dissertation has been prepared at Andijan State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract) on the Scientific council website (www.kokanduni.uz) and on the website of "Ziyonet" information and educational portal website (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Satimova Dilafruz Numonjonovna** Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor
Official opponents:	**Ganiyeva Dildora Azizovna** Doctor of Philological Sciences (DSc), professor
	Ja'farov Botir Sattarovich Doctor of Philological Sciences (DSc), professor
Leading organization:	**Namangan State Institute of Foreign Languages**

The defense will take place on a "30" 12 2025 at 11:00 at the meeting of Scientific council PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 on award of scientific degrees at Kokand University. (Address: 28A, Turkiston street, Kokand city, 150700. Phone: (993873) 545-55-55; Fax: (99873) 545-44-44; E-mail: EXAT.UZ).

Dissertation is available at the Information Recourse Center of Kokand University (registered under the number 19). (The address: 28A, Turkiston street, Kokand city, 150700. Phone: (993873) 545-55-55).

Abstract of dissertation was distributed on "18" 12 2025.
(Protocol at the registered № 4 on "18" 12 2025).

Z.B.Kobilova
Chairman of the Academic Council for Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

M.G.Najmiddinov
Scientific Secretary of the Academic Council for Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

G.M.Oripova
Chairman of the Scientific Seminar under the Academic Council for Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

INTRODUCTION (abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Topicality and relevance of the dissertation theme. In global linguistics, the comparative study of cohesive devices in texts – particularly the concepts of cohesion and coherence, as well as ellipsis, which is one of their most active expressions – across different languages has become a highly relevant area of research of contemporary linguistics. These phenomena, which ensure the integrity and consistency of a text, are not being examined in the scope of traditional grammatical approaches in European linguistics, instead, they are being studied through a complex framework that incorporates semantic, pragmatic and contextual dimensions. In particular, the phenomenon of ellipsis in English, Uzbek and Russian languages is being studied not only within grammatical boundaries, but also by analyzing it with consideration of its semantic, pragmatic and contextual features reveals the necessity of developing theoretical foundations and practical approaches that contribute to enhancing the communicative potential of language.

In world linguistics, the phenomenon of ellipsis is being extensively studied in order to identify the differences and similarities among typologically diverse languages, based on the contextual and situational aspects of linguistic units. The usage features of grammatical ellipsis in various discourses in English and Uzbek languages (substantive, predicative and clausal forms), as well as, the comparative analysis of linguistic and speech ellipsis, their semantic and situational-contextual aspects in communication, and the challenges they pose in the process of translation are considered to be greatly important in promoting and naturalising global communication.

Although a number of studies on the contrastive analysis of cohesion in typologically different languages, particularly, the phenomenon of ellipsis, have been conducted in Uzbek linguistics, there is still a lack of comprehensive monographic research that compares this phenomenon with foreign languages. In the context of globalization, the expansion of Uzbekistan's international partnerships requires that foreign languages be studied in light of the culture, mentality, and social relations of their speakers. In this regard, it is appropriate to cite the following statement: "Today's era demands raising science to a new level, along with all other fields. Indeed, it is difficult to solve the pressing issues facing society without science. Supporting this field and scientists comprehensively is one of the key priorities of our state"[1]. Therefore, the comparative study of the structural-semantic, syntactic, communicative-functional, and pragmatic aspects of the media discourse phenomenon in the examples of English and Uzbek is becoming increasingly relevant.

This research work serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of October 8, 2019 "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030" ; PF-5950 dated October 21, 2019, "On Measures to Radically Increase The States and Prestige of

---

[1] Mirziyoyev Sh. Ilm fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // www.standart.uz (murojaat sanasi: 23.04.2024)

the Uzbek Language as the State Language"; PF-6084 dated October 20, 2020, "On Measures for Further Development of the Uzbek language and Improvement of Language Policy in the Country"; PF-158 dated September 11, 2023, "On the Uzbekistan -2030 Strategy" ; and Revolution PQ-5117 dated May 19, 2021, "On Measures to take the activities of popularizing the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level" and other normative juridical documents related to this activity.

Connection of the research with priority directions of the development of scientific technologies of the republic. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology: I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of a digital society and a democratic state" .

The level of study of the problem. Despite the extensive research on discourse and text linguistics, also the phenomena of cohesion and coherence in global linguistics, this field still retains its significance as a relevant scientific direction that continues to generate numerous theoretical debates. In particular, substantial scholarly works have been carried out by leading researchers in English and Russian linguistics in the area of discourse analysis, text connectivity and the semantic features of communication. The studies by prominent scholars such as, in European and American linguistic schools V. Dresler va R.A.de Bogrand, T.Van Deyk, D. Sperber, M.A.K.Hallidey, R.Hasan, J.Katting, D.Tanen[2], in Russian linguistics, I.R.Galperin, N.D.Arutyunova, T.G.Dobrosklonskaya, V.G.Borbotko, V.Z.Demyankov, I.S.Gerasimova, T.V.Milevskaya, E.N.Bobrikova[3], in Uzbek linguistics M.Hakimov, L.Raupova, M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazova, S.A.Boymirzayeva[4] made substantial contributions to this area of research.

---

[2] De Beaugrande R., Dressler W.V. Introduction to Text Linguistics. – London, New York: Longman, – 1981; Van Dijk Teun A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. Cambridge University Press, 2008; Sperber D. Wilson D. Relevance. Communication and cognition. – UK: Blackwell, 1995; Straubhaar.J and LaRose.L Communications Media in the Information Society, 1997; Halliday M.A.K. and Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976; Cutting J. Pragmatics and Discourse: A resource book for students. 2 nd edition. – London: Routledge, 2002.; Tannen D. Talking Voices: Repetition, Dialogue, and Imagery in Conversational Discourse. – New York: Cambridge University Press, 2007. Second edition.

[3] Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981; Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: Наука, 1990; Добросклонская Т.Г. Медиадискурс: теория, методы, направление: Пара-тайп, Ridero, 2020; Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: Изд-во Чечено-Ингуш. гос. ун-та, 1981; Демьянков В. З. Текст и дискурс как термины и как слова обыденного языка. // IV Международная научная конференция «Язык, культура, общество». Москва, 2007; Герасимова И.С. Средства реализации когезии в региональных документах середины и конца XVIII века // Научный диалог. – 2017; Милевская Т.В. Связность как категория дискурса и текста (когнитивнофункциональный и коммуникативно-прагматический аспекты): дисс…док. филол. наук. – Ростов на Дону: Изд-во РГУ, 2003; Бобрикова Е.Н. Средства связности текста в литературе "потока сознания": на материале романа Джеймса Джойса "Улисс": автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2008;

[4] Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Фарғона, 1996; Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021; Боймирзаева С.А. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. (PhD) – Тошкент, 2010; Mamajonov M. Yu. Muloqotning psixolingvistik tadqiqi: Filol.fan. d-ri (DSc) ...

Linguistic phenomena such as ellipsis, the principle of economy, elliptical constructions, the linguistic economy principle and abbreviation have been extensively studies from various aspects in a monographic manner, particularly in English, Russian and Uzbek linguistics. Particularly, in English linguistics E. Hetch, A.C. Henri, A. Olgriani, P. Herman, E. Koseryu, H.Daniyel[5] and in Russian linguistics J.Vandries, Boduen de Kurtene, V.V.Bogoroditskiy, E.D. Polivanov, Y.D.Polivanova, A. Martine, A.A. Leontev, A.M.Shcherbak, T.A.Starodubova, M.M.Davidova, E.I.Morozova, M.E.Usmonova, D.R.Fatxulova[6], also in Uzbek linguistics, A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, N.Mahkamov, J.D.Eltazarov, Z.I.Rasulov, F.E.Ibragimova[7], U.A.Buriyeva have conducted valuable scientific research.

Nevertheless, to these days, the phenomenon of ellipsis — one of the main forms of cohesion — has not been sufficiently studied in English and Uzbek linguistics as a complex research object in a comparative-contrastive aspect, particularly in terms of its structural-syntactic, semantic, and contextual-situational dimensions. The issues arising in the process of their translation have not been sufficiently studied, which necessitates a deeper scientific and theoretical investigation of this topic.

---

diss.avtoref. – Farg'ona, 2025; Roziqova.G. So'z semantik taraqqiyotining o'zgarishlari xususida // Farg'ona davlat universiteti. – Farg'ona, 2023.

[5] Hatch E. Discourse and language education. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992; Henry A. C. The remark-able rise of '...': reading ellipsis marks in literary texts. – London: Routledge, 2019; Algryani A. Remarks on the Translation of Noun Phrase Ellipsis from English into Arabic // AWEJ for Translation and Literary Studies. Volume 4, № 1. February, 2020; Hermann P. Prinzipien der Sprachgeschichte. – Halle: Max Niemeyer, 1880; Coseriu E. Sincronía, diacronía e historia: El problema del cambio lingüístico. – Madrid: Gredos, 1958; Hardt Daniel. Verb Phrase Ellipsis: Form, Meaning, and Processing. University of Pennsylvania Dissertation, 1993.

[6] Вандриес Ж. Язык. Лингвистическое введение в историю. – М., 1937; Бодуэн де Куртенэ И.А. Очерки по истории лингвистики. – М., Академия наук, 1963; Богородицкий В.В. Основы фонетики русского языка. – М., Наука, 1965; Поливанов Е.Д. Где лежат причины языковой эволюции? // Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. – М., Наука, 1968; Мартине А. Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике. – М.,Иностранная литература, 1963; Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М., Наука, 1974; Щербак А.М. Система языка и речь. – Ленинград: Ленинградский университет, 1972; Стародубова Т. А. Эллиптические сложные предложения: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — М., 2009; Давыдова М.М. Прагматические характеристики эллипсисов (на материале современного английского языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2012. – Курск; Морозова Е.И. Структурно-функциональные типы и прагматические характеристики эллипсиса во французском языке в сопоставлении с английским (на материале газетно-журнальных публикаций): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2005; Усмонова М.Э. Эллиптические предложения в таджикском и английском языках. автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2012; Фатхулова Д.Р. Роль эллиптических конструкций в семантико-синтаксической организации делового диалога (на материале французского и английского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2008.

[7] Нурмонов А. Принцип экономии в фонетических изменениях узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1973; Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке. Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент,1977; Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент, Фан, 1988; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида қисқарув ҳодисаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1991; Элтазаров Ж. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув. – Самарқанд: СамДУ, 2004; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида қисқарув ҳодисаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1991; Расулов З. И. Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка (на материале английского языка). Дисс...канд. филол. наук. – Бухара, 2011; Расулов З. И. Нутқий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида). Филол. фан. д-ри. ... дисс.автореф. (DSc) – Тошкент, 2022; Ибрагимова Ф.Э. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Буриева У.А. Дискурсив таҳлилда воқеаланган тўлиқсиз гаплар ва уларнинг социопрагматик хусусиятлари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс.автореф. (PhD) – Тошкент, 2022.

The connection of the research with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. This dissertation has been carried out in accordance with the research plan of Andijan Sate University, with the framework of the scientific directions "Current Issues of Modern Linguistics" and "From the results of Theoretical Linguistics to Applied linguistics"

